

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING SAYLOV KODEKSI

1-bob. Umumiy qoidalar

1-modda. Ushbu Kodeks bilan tartibga solinadigan munosabatlar

Ushbu Kodeks O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi (bundan buyon matnda Qonunchilik palatasi deb yuritiladi) deputatlari, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati (bundan buyon matnda Senat deb yuritiladi) a'zolari, xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlari (bundan buyon matnda mahalliy Kengashlar deb yuritiladi) deputatlari saylovlariga tayyorgarlik ko'rish va ularni o'tkazish bilan bog'liq munosabatlarni tartibga soladi hamda O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining xohish-irodasi erkin bildirilishini ta'minlovchi kafolatlarni belgilaydi.

Oldingi tahrirga qarang.

2-modda. Saylov to'g'risidagi qonunchilik

Saylov to'g'risidagi qonunchilik O'zbekiston Respublikasining [Konstitutsiyasi](#), ushbu Kodeks va O'zbekiston Respublikasining boshqa qonunchilik hujjatlaridan iboratdir.

(2-modda O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

3-modda. O'zbekiston Respublikasida saylov o'tkazishning asosiy prinsiplari

O'zbekiston Respublikasida saylov umumiy, teng, to'g'ridan to'g'ri saylov huquqi asosida yashirin ovoz berish orqali o'tkaziladi.

Saylov ochiq va oshkora o'tkaziladi.

4-modda. Umumiy saylov huquqi

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Qonunchilik palatasi deputatlari va mahalliy Kengashlar deputatlari saylovlari umumiydir.

Saylov kuni o'n sakkiz yoshga to'lgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolari (bundan buyon matnda fuqarolar deb yuritiladi) saylash huquqiga egadir.

Fuqarolar jinsi, irqiy va milliy mansubligi, tili, dinga munosabati, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeyi, ma'lumoti, mashg'ulotining turi va xususiyatidan qat'i nazar, teng saylov huquqiga egadir.

5-modda. Teng saylov huquqi

Saylovda ishtirok etuvchi har bir fuqaro bir ovozga ega bo'ladi.

Sud tomonidan muomalaga layoqatsiz deb topilgan fuqarolar, shuningdek sud hukmi bilan ozodlikdan mahrum etish joylarida saqlanayotgan shaxslar saylanishi mumkin emas.

Sud tomonidan muomalaga layoqatsiz deb topilgan fuqarolar, shuningdek og'ir va o'ta og'ir jinoyatlar sodir etganligi uchun sudning hukmi bilan ozodlikdan mahrum etish joylarida saqlanayotgan shaxslar saylovda ishtirok etmaydi.

6-modda. To'g'ridan-to'g'ri saylov huquqi

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Qonunchilik palatasi deputatlari, mahalliy Kengashlar deputatlari fuqarolar tomonidan bevosita saylanadi.

7-modda. Yashirin ovoz berish

Saylovda erkin va yashirin ovoz beriladi. Saylovchilarning xohish-irodasini nazorat qilishga yo'l qo'yilmaydi.

Yashirin ovoz berish saylovchining xohish-irodasi ustidan har qanday tarzda nazorat qilish imkoniyatini istisno etadigan tegishli sharoitlarni yaratish orqali ta'minlanadi.

8-modda. Saylovga tayyorgarlik ko'rish hamda uni o'tkazishdagi ochiqlik va oshkoralik

Saylovga tayyorgarlik ko'rish hamda uni o'tkazishni saylov komissiyalari ochiq va oshkora amalga oshiradi.

Saylov komissiyalari fuqarolarni o'z ishi to'g'risida, saylov okruglari, uchastkalari tuzilganligi haqida, saylov komissiyalarining tarkibi, ularning joylashgan eri va ish vaqti to'g'risida xabardor etadi, saylovchilarning ro'yxatlari, saylovda ishtirok etayotgan siyosiy partiyalarning ro'yxati bilan tanishtiradi, O'zbekiston Respublikasi Prezidentligiga, Qonunchilik palatasi deputatligiga, mahalliy Kengashlar deputatligiga nomzodlar to'g'risidagi, shuningdek ovoz berish va saylov yakunlari haqidagi ma'lumotlarni ma'lum qiladi.

Ommaviy axborot vositalari saylovga tayyorgarlikning borishini va saylov qanday o'tayotganligini yoritib boradi.

Saylov komissiyalarining majlislari ochiq o'tkaziladi. Saylov komissiyalarining qarorlari ommaviy axborot vositalarida e'lon qilinadi yoki ushbu Kodeksda belgilangan tartibda hammaga ma'lum qilinadi.

Saylovga tayyorgarlik ko'rish hamda uni o'tkazishga doir barcha tadbirlarda, shuningdek saylov kuni ovoz berish xonalarida va ovozlarni sanab chiqishda O'zbekiston Respublikasi Prezidentligiga, Qonunchilik palatasi deputatligiga, mahalliy Kengashlar deputatligiga nomzodlar ko'rsatgan siyosiy partiyalardan, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlaridan kuzatuvchilar, ommaviy axborot vositalari vakillari, boshqa davlatlardan, xalqaro tashkilotlardan kuzatuvchilar ishtirok etish huquqiga ega.

Oldingi tahrirga qarang.

8¹-modda. Saylov o'tkazilishini cheklash

O'zbekiston Respublikasining butun hududida yoki ayrim joylarida joriy etilgan favqulodda holat amal qilishining butun muddati davomida saylovlar o'tkazilmaydi.

(8¹-modda O'zbekiston Respublikasining 2022-yil 2-martdagi O'RQ-756-sonli Qonuniga asosan kiritilgan — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 03.03.2022-y., 03/22/756/0180-son)

2-bob. Saylov okruglari va uchastkalari

9-modda. Saylov okruglarini tuzish

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovini o'tkazish bo'yicha saylov okruglari Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri chegaralari doirasida O'zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasi (bundan buyon matnda Markaziy saylov komissiyasi deb yuritiladi) tomonidan tuziladi.

Qonunchilik palatasi deputatlari saylovini o'tkazish uchun bir yuz ellikta hududiy saylov okrugi tuziladi. Har bir saylov okrugidan bitta deputat saylanadi.

Qonunchilik palatasi deputatlari saylovini o'tkazish bo'yicha saylov okruglari Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesining, xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar Kengashlarining taqdimnomasiga binoan Markaziy saylov komissiyasi tomonidan tuziladi.

Qonunchilik palatasi deputatlari saylovini o'tkazish bo'yicha saylov okruglarining chegaralari Qoraqalpog'iston Respublikasining, viloyatlarning va Toshkent shahrining ma'muriy-hududiy tuzilishi inobatga olingan holda, qoida tariqasida, O'zbekiston Respublikasining butun hududida saylovchilar soni teng holda belgilanadi.

Mahalliy Kengashlarga saylov o'tkazish uchun quyidagi saylov okruglari tuziladi:

xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar Kengashlariga saylov o'tkazish uchun — oltmishtadan ko'p bo'lmagan saylov okrugi;

xalq deputatlari tuman va shahar Kengashlariga saylov o'tkazish uchun — o'ttiztadan ko'p bo'lmagan saylov okrugi. Har bir saylov okrugidan bitta deputat saylanadi.

Ushbu Kodeksda belgilangan normalar doirasida mahalliy Kengashlarga saylov o'tkazish uchun saylov okruglari soni tegishli mahalliy Kengash tomonidan aholi, saylovchilar soni, hudud va boshqa mahalliy sharoitlardan kelib chiqqan holda belgilanadi.

Mahalliy Kengashlarga saylov o'tkazish bo'yicha saylov okruglari tegishli viloyat, tuman, shahar saylov komissiyasi tomonidan, qoida tariqasida, saylovchilar soni teng holda tuziladi. Saylov

okruglarining chegaralari viloyatlar, tumanlar va shaharlarning ma'muriy-hududiy tuzilishi inobatga olingan holda belgilanadi.

Saylov okruglarini tuzishda saylov okruglaridagi saylovchilar sonining yo'l qo'yiladigan eng ko'p chetga chiqishi, qoida tariqasida, o'n foizdan oshmasligi kerak.

Saylov okruglarining ro'yxatlari ularning chegaralari, saylovchilar soni va okrug saylov komissiyalarining joylashgan eri ko'rsatilgan holda saylovdan kamida yetmish besh kun oldin tegishli saylov komissiyasi tomonidan e'lon qilinadi.

10-modda. Saylov uchastkalarini tuzish tartibi va normasi

Oldingi tahrirga qarang.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovini, Qonunchilik palatasi deputatlari, viloyatlar va Toshkent shahar Kengashlari deputatlari saylovini o'tkazish bo'yicha saylov uchastkalari tumanlar va shaharlar hokimliklarining taqdimnomasiga binoan okrug saylov komissiyalari tomonidan, tuman, shahar Kengashlari deputatlari saylovini o'tkazish bo'yicha saylov uchastkalari esa tuman, shahar saylov komissiyalari tomonidan tuziladi.

(10-moddaning birinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 8-fevraldagi O'RQ-670-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 09.02.2021-y., 03/21/670/0089-son)

Saylovchilarga mumkin qadar ko'proq qulaylik yaratish maqsadida saylov uchastkalari tumanlarning, shaharlarning, shaharlardagi tumanlarning chegaralari inobatga olingan holda tuziladi. Uchastkalar harbiy qismlarda ham tuziladi va qismlar joylashgan erdagi okruglarga kiradi. Saylov uchastkalarining chegaralari boshqa saylov okruglarining chegaralarini kesib o'tmasligi kerak.

O'zbekiston Respublikasining chet davlatlardagi diplomatik va boshqa vakolatxonalari huzurida, sanatoriylarda, dam olish uylarida, kasalxonalarda va boshqa statsionar davolash muassasalarida, olis va borish qiyin bo'lgan hududlardagi fuqarolar turgan joylarda, qamoqda saqlash va ozodlikdan mahrum etish joylarida saylov uchastkalari tuzilishi mumkin. Bu uchastkalar ular joylashgan erdagi saylov okruglariga kiradi. O'zbekiston Respublikasidan tashqarida tuziladigan uchastkalarni okrugga birlashtirish to'g'risidagi masala Markaziy saylov komissiyasi tomonidan hal etiladi.

Oldingi tahrirga qarang.

Harbiy qismlarda saylov uchastkalari qismlar yoki harbiy qo'shilmalar komandirlarining taqdimnomasiga binoan okrug saylov komissiyalari tomonidan tuziladi. O'zbekiston Respublikasining chet davlatlardagi diplomatik va boshqa vakolatxonalari huzurida saylov uchastkalari O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligining taqdimnomasiga binoan Markaziy saylov komissiyasi tomonidan tuziladi.

(10-moddaning to'rtinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 8-fevraldagi O'RQ-670-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 09.02.2021-y., 03/21/670/0089-son)

Saylov uchastkalari saylovga kamida oltmish kun qolganida, qoida tariqasida, saylovchilar soni kamida yigirma nafardan va ko'pi bilan uch ming nafardan oshmagan holda tuziladi. Harbiy qismlarda, O'zbekiston Respublikasining chet davlatlardagi diplomatik va boshqa vakolatxonalari huzurida, shuningdek olis va borish qiyin bo'lgan hududlardagi fuqarolar turgan joylarda, qamoqda saqlash va ozodlikdan mahrum etish joylarida saylov uchastkalari ana shu muddatda, ayrim hollarda esa saylovga kamida yetti kun qolganida tuziladi.

Saylov uchastkalarining soni okruglar sonidan kam bo'lishi mumkin emas.

Okrug saylov komissiyasi saylov uchastkalarining tartib raqamini belgilaydi hamda tegishli uchastka komissiyasining telefon raqamlarini, joylashgan erini va ovoz berish binosini ko'rsatgan holda saylovchilarni har bir uchastkaning chegaralari to'g'risida xabardor etishni tashkil qiladi.

Qonunchilik palatasi, mahalliy Kengashlar deputatlari saylovi bir vaqtda o'tkazilgan taqdirda, Qonunchilik palatasi deputatlari saylovini o'tkazish bo'yicha okrug saylov komissiyalari tomonidan yagona saylov uchastkalari tuziladi.

3-bob. Saylov komissiyalari

11-modda. Saylov komissiyalari tizimi

Saylov komissiyalari tizimiga quyidagilar kiradi:

Markaziy saylov komissiyasi;

viloyat, tuman va shahar saylov komissiyalari;
okrug saylov komissiyalari;
uchastka saylov komissiyalari.

Saylov komissiyalari va ularning a'zolari o'z faoliyatini har qanday davlat organlaridan, jamoat birlashmalaridan va mansabdor shaxslardan mustaqil holda amalga oshiradi.

Saylov komissiyalarining faoliyatiga aralashishga yo'l qo'yilmaydi va bunday aralashuv qonunga muvofiq javobgarlikka sabab bo'ladi.

Saylov komissiyalari va ularning a'zolari o'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasi [Konstitutsiyasiga](#), ushbu Kodeksga va boshqa qonun hujjatlariga amal qiladi.

Masalalarni ko'rib chiqish va qarorlar qabul qilish saylov komissiyasi tomonidan kollegial tarzda amalga oshiriladi.

Saylov komissiyalari o'z faoliyatini ochiq va oshkora amalga oshiradi.

Saylov komissiyasining majlislarida siyosiy partiyalarning, ommaviy axborot vositalarining vakillari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlaridan, boshqa davlatlardan, xalqaro tashkilotlardan kuzatuvchilar hozir bo'lishi mumkin.

Saylov komissiyalari nomzodlarga, siyosiy partiyalarga saylov kampaniyasini o'tkazish uchun teng shart-sharoitlarni, saylovga tayyorgarlik ko'rish hamda uni o'tkazish uchun ajratilgan budget mablag'larining adolatli taqsimlanishini, ovoz berishning va saylov yakunlarini chiqarishning halol bo'lishini ta'minlash yuzasidan zarur choralar ko'radi.

12-modda. Markaziy saylov komissiyasini tuzish

Markaziy saylov komissiyasi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining palatalari tomonidan kamida o'n besh nafar a'zodan iborat tarkibda tuziladi.

Markaziy saylov komissiyasining a'zolari Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesining, xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar Kengashlarining tavsiyasiga ko'ra Qonunchilik palatasi hamda Senat tomonidan saylanadi.

Markaziy saylov komissiyasining Raisi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining taqdimnomasiga binoan komissiya a'zolari orasidan komissiya majlisida saylanadi.

Markaziy saylov komissiyasi Raisining o'rinbosari va komissiya kotibi komissiya a'zolari orasidan komissiya majlisida saylanadi.

Markaziy saylov komissiyasining a'zosi tegishli guvohnomaga ega bo'ladi.

Markaziy saylov komissiyasi Raisining va uning o'rinbosarining guvohnomasi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan, Markaziy saylov komissiyasi boshqa a'zolarining guvohnomasi esa Qonunchilik palatasi Spikeri va Senat Raisi tomonidan imzolanadi.

13-modda. Markaziy saylov komissiyasiga a'zolik

Yigirma besh yoshga to'lgan, qoida tariqasida, oliy ma'lumotga, saylovlarni tashkil etish va o'tkazish borasida ish tajribasiga ega bo'lgan, jamoatchilik o'rtasida obro'-e'tibor qozongan hamda kamida oxirgi besh yil O'zbekiston Respublikasi hududida doimiy yashab turgan fuqaro Markaziy saylov komissiyasining a'zosi bo'lishi mumkin.

Og'ir yoki o'ta og'ir jinoyatlar sodir etganligi uchun sudlanganlik holati tugallanmagan yoxud sudlanganligi olib tashlanmagan fuqarolar, O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining harbiy xizmatchilari, O'zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmatining, boshqa harbiylashtirilgan bo'linmalarining xodimlari, diniy tashkilotlar va birlashmalarining professional xizmatchilari Markaziy saylov komissiyasining a'zosi bo'lishi mumkin emas.

Markaziy saylov komissiyasining a'zosi boshqa saylov komissiyasining yoki siyosiy partiyaning a'zosi bo'lishi mumkin emas.

Markaziy saylov komissiyasining O'zbekiston Respublikasi Prezidentligiga nomzod etib, Qonunchilik palatasi deputatligiga nomzod etib, Senat a'zolicigiga nomzod etib, ishonchli vakil etib ro'yxatga olingan a'zosi komissiya tarkibidan chiqib ketgan deb hisoblanadi.

Markaziy saylov komissiyasi a'zosining vakolatlari O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalari tomonidan bevosita yoki uni a'zolikka tavsiya etgan organning taqdimnomasiga binoan quyidagi hollarda tugatilishi mumkin:

u o'z vakolatlarini zimmasidan soqit qilish to'g'risida yozma ariza berganda;

u sud tomonidan muomalaga layoqatsiz deb topilganda;

unga nisbatan sudning ayblov hukmi qonuniy kuchga kirganda;

u o'z vazifalarini muntazam ravishda bajarmay kelganda;

qonunga ko'ra u Markaziy saylov komissiyasi a'zosining vakolatlarini amalga oshirish bilan bir vaqtda shug'ullanib bo'lmaydigan lavozimga saylanganda yoki tayinlanganda;

u sudning qonuniy kuchga kirgan qarori asosida bedarak yo'qolgan deb topilganda yoki vafot etgan deb e'lon qilinganda;

u O'zbekiston Respublikasi fuqaroligini yo'qotganda;

u vafot etganda.

Markaziy saylov komissiyasining yangi a'zosi ushbu Kodeksda belgilangan tartibda saylanadi.

Markaziy saylov komissiyasining a'zosi ushbu komissiyaning qaroriga binoan komissiyada doimiy asosda ishlashi mumkin. Markaziy saylov komissiyasida doimiy asosda ishlovchi komissiya a'zolarining soni ko'pi bilan yetti kishidan iborat bo'ladi.

Markaziy saylov komissiyasining doimiy asosda ishlovchi a'zolari ilmiy va pedagogik faoliyatdan tashqari haq to'lanadigan boshqa turdagi faoliyat bilan shug'ullanishi mumkin emas.

Markaziy saylov komissiyasi a'zolariga Qonunchilik palatasi deputatlariga, Senat a'zolariga nisbatan qo'llaniladigan daxlsizlik to'g'risidagi qoidalar tatbiq etiladi.

14-modda. Markaziy saylov komissiyasining vakolatlari

Markaziy saylov komissiyasi:

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovini, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylovni o'tkazish uchun tuziladigan saylov komissiyalari tizimiga boshchilik qiladi, O'zbekiston Respublikasining butun hududida ushbu Kodeksning ijrosi ustidan nazoratni amalga oshiradi, uning bir xil tarzda qo'llanilishini ta'minlaydi;

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi, Qonunchilik palatasi, mahalliy Kengashlar deputatlari saylovi yuzasidan saylov kampaniyasi boshlanganligini e'lon qiladi;

saylov komissiyalari faoliyatini uslubiy jihatdan ta'minlashni amalga oshiradi, saylovni tashkil etish masalalari yuzasidan o'z vakolatlari doirasida qarorlar qabul qiladi, yo'riqnomalar hamda nizomlarni tasdiqlaydi, tushuntirishlar beradi;

Saylov jarayonini boshqarishning axborot tizimini joriy etish hamda O'zbekiston Respublikasi saylovchilarining yagona elektron ro'yxatidan (bundan buyon matnda Saylovchilarning yagona elektron ro'yxati deb yuritiladi) foydalanish faoliyati bo'yicha umumiy rahbarlikni va muvofiqlashtirishni amalga oshiradi;

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Qonunchilik palatasi deputatlari saylovlarini o'tkazish uchun saylov okruglarini tuzadi;

O'zbekiston Respublikasining chet davlatlardagi diplomatik va boshqa vakolatxonalari huzurida tuzilgan saylov uchastkalarini tegishli okruglarga birlashtirish to'g'risidagi masalalarni hal etadi;

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Qonunchilik palatasi deputatlari saylovlarini o'tkazish bo'yicha okrug saylov komissiyalarini tuzadi, shuningdek ularning joylashgan eri to'g'risidagi ma'lumotlarni e'lon qiladi;

saylov komissiyalari tarkibiga o'zgartishlar kiritish tartibini belgilaydi;

agar okrug saylov komissiyalarining qarorlari ushbu Kodeksga zid bo'lsa, ushbu qarorlarni mustaqil ravishda yoki O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining taqdimnomasiga binoan bekor qiladi;

chet davlatlarning, xalqaro tashkilotlarning saylovdagi kuzatuvchilariga mandatlar beradi;